

TIBBIY IJTIMOYIY XIZMAT SOHASIDA SUN`IY TAFAKKURDAN FOYDALANISH

Esirgapova Nargiza

*Samarqand Davlat Universitetining Kattaqo`rg`on filiali
IJ-21-17guruh talabasi*

Kalit so`zlar: sun`iy intellekt, tibbiy xizmat, raqamlashtirish, AI

Anotatsiya

Ushbu maqola sun`iy intellekt va uning imkoniyatlarini o`rganish tibbiy ijtimoiy xizmat sohasida undan qanday foydalanish haqida ma`lumot beradi. Sog`liqni saqlash bilan bog`liq sun`iy intellektning asosiy maqsadi klinik usullar va bemorlar o`rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishdir. Bu maqola hozirgi kunda bizning hayotimizga sezilarli ta`sir ko`rsatish mumkin bo`lgan qarorlar qabul qilish uchun sun`iy intellektidan foydalanish, sun`iy intellektni raqamlashtirishda va uni qo`llash bo`yicha O`zbekistonda olib borilayotgan islohatlar, sun`iy intellektidan foydalanish inson uchun qanday qulayliklar berishi to`g`risida bayon qiladi.

Kirish. Sun`iy intellekt -bu inson ongi bilan bog`liq imkoniyatlar ya`ni u tilni tushunish, o`rgatish, muhokama qilish, masalani yechish va shu kabi imkoniyatlarga ega kompaniyalar tizimi va texnologiyalarni yaratish bilan shug`ullanadi. XX asrning 2chi 10 yilligidan yer yuzidagi barcha jamiyatlarda juda ham ildam raqamlashtirishga kirishildi va buning asosiy sababi sun`iy intellektning ommalashganligi edi. Sun`iy intellekt yordamida katta hajmdagi axborotlarga tayangan holda xulosa chiqarishda katta qulaylikka ega bo`ldi. Avval bir inson biror-bir sohaga oid xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilmoqchi bo`lsa, bu inson kutubxonaga kirib va o`ziga kerak bo`lgan turli manbalarga qarab bir necha yillab kitoblarni o`qishi va undagi ma`lumotlarni tahlil qilib chiqishi kerak edi. Hozirgi kunda esa sun`iy intellekt texnologiyalari rivojlanganligi tufayli bu kabi muammolar bir necha soniyalarda hal bo`lmoqda. Hozirgi sun`iy intellekt turli amallarni bajarishga mo`ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan va u inson ongi bajarishi mumkin bo`lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot hamshiralar, xaydovchisiz transport vositalari insonlarga turli xil buyurtmalarni yetkazib beruvchi maxsus dronlar xizmatidan foydalanish yo`lga qo`yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba`zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishayapti. Olimlar ularning tashqi ko`rinishini imkon qadar odamlarnikiga o`xshatishga urinishmoqda. Sun`iy intellekt rivojlanishida ko`plab halal berayotgan to`siqlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, aksariyat iste`molchilarning robotlarga ularning harakatlariga ishonch bildirishmayotganligi sun`iy intellektning ommalashishiga to`siq bo`lmoqda.

Sun`iy intellekt hamma sohalarda rivojlangani kabi tibbiyotda ham jadal rivojlanmoqda. Tibbiyot sohasida AI allaqachon bemorlarning tajribasini va klinik tibbiyotda qanday ishlashni va farmatsevtika sanoatining ishlashini o`zgartirmoqda. Sog`liqni saqlash sohasida AI dasturlari diagnostika, davolash

protokolini ishlab chiqish, dori-darmonlarni ishlab chiqish, shaxsiylashtirilgan tibbiyot va bemorlarni kuzatish va parvarish qilish kabi amaliyotlarda qo'llaniladi. Bugungi kunda robotlar murakkab jarrohlik amaliyotlarini o'tkazmoqda. Ko'plab unga oid dasturlar ishlab chiqarilmoqda. Medtronis kompaniyasi esa IBM bilan hamkorlikda qandli diabet kasalligi bilan og'riqan bemorlar uchun maxsus dastur ishlab chiqildi.¹ Bu dasturlar orqali tibbiyotda shifokorlar bemorlar ma'lumotlarini tahlil qilish, ularga tibbiy xizmat ko'rsatishda klinik qarorlar qabul qilish, bu kasallik haqida to'liq ma'lumotni shakllantirish amalga oshiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, tibbiyot sohasida shu kabi kasalliklarni o'rganib chiqib, ularni davolash yo'llarini topishda sun'iy intellekt muhim rol o'ynaydi. Dunyoda sog'liqni saqlash tizimida yuksak samaradorlikka erishgan, aholini o'rtacha umr ko'rish darajasi yuqori bo'lgan eng ilg'or mamlakatlar qatoridan joy olish strategik vazifamizdir.² Bugungi kunda aholiga tibbiy yordam ko'rsatish O'zbekiston hududida balki boshqa ko'plab mamlakatlarda jadal rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Aholiga zarur tibbiy xizmatlarni tibbiy xodimlar tomonidan olib boriladi. Bunda tibbiyot xodimi bemorlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatayotganda o'z kasbiy malakasidan bilim va ko'nikmalaridan foydalanadi. Shu o'rinda shuni aytishim kerakki, tibbiy xizmat ko'rsatishda kasallik haqida xodim kerakli ma'lumotga ega bo'lishi kasallikka diognoz qo'yishi hamda qarorlar qabul qilishida sun'iy intellektning o'rni juda ahamiyatlidir. Yolg'iz keksalarga, nogironlarga, kam ta'minlangan ko'p bolali oilalarga va aholining boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarga insonparvarlik va tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish jamiyatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Aholiga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatishda ijtimoiy terapiya muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy terapiya-(yunoncha- g'amxo'rlik, qarov, davolash) shaxsga yoki shaxslar guruhiga hissiyotlar, impluslar, fikrlar, munosabatlarni tartibga solish masalasida muntazam maqsadga yo'naltirilgan yordam berish uchun bajariladigan tadbirlar.³ Bunda ijtimoiy terapiyaning asosiy maqsadi tibbiy xizmatga muhtoj aholini muammolarini yechishda tibbiyot xizmatchilari bilan birgalikda yordam ko'rsatish, aholini faol guruh faoliyatiga qo'shish ularning ijtimoiy salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishni tashkil qilish hisoblanadi. Tibbiy ijtimoiy xizmatchilar bemorlarning psixologiyasiga ta'sir o'tkaza olishi kerak, ya'ni bemordagi ijobiy o'zgarishlar haqida ma'lumotni yetkaza olishi kerak.

Bugungi kunga qadar jahon mamlakatlari tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha yettita xalqaro, ellikdan ortiq milliy strategiya qabul qilingan. bu yo'nalishda O'zbekistonda ham katta qadam tashlandi va sun'iy intellekt sohasida qonunchilikdagi bo'shliq to'ldirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4996-qarorida ham «Raqamli O'zbekiston-2030» Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun

¹ Sog'liqni saqlashdagi sun'iy intellekt _Vikipediya <http://uz.wikipedia>

² Yangi Ozbekiston Strategiyasi -Toshkent."O'zbekiston" nashriyoti, 2021.213-bet.

³ Ijtimoiy ishga kirish o'quv-uslubiy majmua.Samarqand-2021.86-bet

qulay shart-sharoitlar yaratish belgilangan.⁴ Shu kabi hujjatlar va qarorlarning qabul qilinishi sun`iy intellekt texnologiyalari jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo`llash, raqamli ma`lumotlardan foydalanish imkoniyatini hamda ularning yuqori sifatini ta`minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qilishga qaratilgan., O`zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo`ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohatlar, ilm-ma`rifat va innovatsiyalar bilan erisha olamiz”⁵ Shu boisdan ham mamlakatimiz va jahon ilm-fan imkoniyatlaridan kelib chiqib sun`iy intellekt muammosiga ilmiy falsafiy nuqtayi nazaridan o`rganish, shaxs va jamiyat intellektual salohiyatini shakllantirishdagi innavatsion imkoniyatlarini tadqiq qilish zaruratini ko`rsatmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, so`ngi yillarda sog`liqni saqlash holati bo`yicha ko`rsatgichlar bilan bog`liqlikda tibbiy yozuv va bemorlar haqida ma`lumotlar avtomatlashtirilmoqda. Bu esa tibbiyot xodimlariga bir qancha yengilliklar olib keladi. Masalan, ko`zi ojizlar uchun yoki zaif ko`ruvchilar uchun ovozli yordamchi, karlar uchun maxsus eshitish qurilmalari, nogironlar uchun yordamchi qurilmalar yaratilishi tibbiyot xodimlariga bir qancha yengilliklar olib keladi. Yaqin kelajakda ko`plab olimlarning sun`iy intellekt texnologiyalarini tibbiyot sohasida turli sohalarda olib borayotgan izlanishlariga guvoh bo`lamiz. Demak, sun`iy intellekt – bu kelajak fanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sog`liqni saqlashdagi sun`iy intellekt _ Vikipediya <http://uz.wikipedia>
2. Yangi Ozbekiston Strategiyasi - Toshkent. "O`zbekiston" nashriyoti, 2021. 213-bet.
3. Ijtimoiy ishga kirish o`quv-uslubiy majmua. Samarqand-2021. 86-bet
4. Odamlar va robotlar raqobati-xabar.uz <http://xabar.uz/uz/tahlil/odamlar-va-robotlar-raqobati>
5. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 24.01.2020. <http://uza.uz>

⁴ Odamlar va robotlar raqobati-xabar.uz <http://xabar.uz/uz/tahlil/odamlar-va-robotlar-raqobati>

⁵ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi 24.01.2020. <http://uza.uz>